INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

MATN TAHLILI MUAMMOLARI XUSUSIDA AYRIM MULAHAZALAR

Turniyazova Shaxnoza Nigmatovna
Samarqand davlat chet tillar instituti professori v.v.b. (DSc)

https://doi.org/10.5281/zenodo.15679501

Annotatsiya. *Matn lingvistikasi ayni zamonda o‘zining boshlang‘ich davrini boshdan kechirmoqda. Bu sohada hali nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham ilmiy tadqiqot ishlari boshlanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Mavjud ishlarda esa nutq va matn lingvistikasining global muammolari kun tartibiga qo‘yilmaganini ko‘ramiz. Biroq, yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrigacha tilning har bir sathiga, shu jumladan, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarga tegishli bo‘lgan ko‘plab muammolar hal qilindi. Mazkur maqolada shu va shunga o‘xshash masalalar tahlili berilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn lingvistikasi, til birliklari, gap, fonetik sath, leksik-morfologik sath, derivatologiya, mikromatn, makromatn, kontekst.*

Аннотация. *Лингвистика текста в настоящее время переживает период своего зарождения. Не так давно в этой области началась научно-исследовательская работа не только в узбекском, но и в мировом языкознании. Однако в существующих работах мы видим, что глобальные проблемы лингвистики речи и текста не поставлены на повестку дня. Но наряду с вышесказанным, следует отметить, что до настоящего времени развития лингвистической науки было решено множество проблем, относящихся к каждому уровню языка, включая фонетический, лексический, морфологический, синтаксические уровни. В данной статье представлен анализ подобных вопросов.*

Ключевые слова: *Лингвистика текста, языковые единицы, предложение, фонетический уровень, лексико-морфологический уровень, дериватология, микротекст, макротекст, контекст.*

Annotation. *The linguistics of text is currently in its infancy. Not so long ago, scientific research began in this area, not only in Uzbek, but also in world linguistics. However, in the existing works we see that the global problems of linguistics of speech and text are not on the agenda. But along with the above, it should be noted that so far the development of linguistic science has solved many problems related to each level of language, including phonetic, lexical, morphological, syntactic levels. This article presents an analysis of such issues.*

Keywords: *Linguistics of the text, linguistic units, sentence, phonetic level, lexico-morphological level, derivatology, microtext, macrotext, context.*

Matn lingvistikasi muammolari til sistemasi birliklarining nutqqa ko‘chirilishi, uning amalda real qo‘llanilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Lingvistikamiz oldida «nutqni tilga kiritish» masalasi ko‘ndalang turibdi degan edi O.Dukrot[1]. Bu masala talqini hozirgi jahon tilshunosligida o‘ta dolzarb bo‘lib, g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ehtimol, XXI asr tilshunoslik fani uchun tilning amalda qo‘llanilishi muammolarini o‘rganish asri bo‘lib qolar. Shunday ekan, tilning nutqqa ko‘chirilishi, boshqacha aytganda, nutq lingvistikasi masalalari

talqini tadqiqotlarimiz kun tartibidagi asosiy tekshiruv obyektlaridan birini tashkil etishi tabiiydir. Ammo bu bilan til sistemasi talqiniga taalluqli masalalar, muammolar me'yor darajasida o'rganilgan va bu sohada izohtalab masalalar yo'q, demoqchi emasmiz, albatta. Bu jabhada ham o'rganilishi lozim bo'lgan va shu bilan birga, fan taraqqiyotiga mos holda qaytadan ko'rib chiqilishi darkor bo'lgan masalalar anchagina ko'rinadi.

Bunday masalalarni tilning fonetik sathida ham, leksik-morfologik va sintaktik sathlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, sintaksisga oid gap bo'laklari, mikro- va makrosistemalar munosabati, til va nutq birliklarining iyerarxik aloqasi, sintaktik paradigmatika, funksional sintaksis, semantik sintaksis kabilarga tegishli ko'plab masalalar o'z yechimini kutmoqda. Ana shunday masalalardan biri matn derivatsiyasidir. Derivatologiyaning taniqli namoyandalaridan biri L.N.Murzinning ta'kidlashiga ko'ra, derivatologiya fonemalardan boshlab matn shakllanishini ham o'z ichiga oladigan keng qamrovli yo'nalishdir[2].

A.T.Krivonosovning to'g'ri ta'kidlashicha, «Matn lingvistikasi» aksariyat hollarda obzor xarakterga ega bo'lgan faktlarga asoslanmoqda va buning natijasida emperik materialdan uzilish ro'y bermoqda. Natijada esa odatdagi gap tahlilidan nari o'tilmayapti[3].

Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida sintaksisning tekshiruv obyekti kengayib bormoqda. Buning dalili sifatida matn lingvistikasining ilmiy asoslanayotganligini ko'rsatish mumkin.

Albatta, matn tahlili odatdagi sintaktik tahlil doirasiga sig'maydi. S.D.Katsnelson ham bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Yaxlit matnning lingvistik strukturasini hali o'rganilmagan deyish mumkin. Gapdagi so'zlarning o'zaro munosabatini o'rganuvchi «kichik sintaksis» dan tashqari, gaplarning va ulardan katta sintaktik qurilmalarning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi «katta sintaksis»ga ham ehtiyoj tug'ilmoqda»[4].

Darhaqiqat, matn lingvistikasi masalalarining kun tartibiga qo'yilishi, o'z navbatida, «katta sintaksis» tushunchasining ham iste'molga kiritilishini talab qilishi shubhasizdir. Chunki amaldagi gap tahlili uchun qo'llaniladigan qoidalar matn tahlili uchun yaroqsizdir. Boshqacha aytganda, gap so'zlarning o'zaro munosabatini namoyon etsa, matnda gaplarning, murakkab sintaktik qurilmalarning, abzas va boblarning o'zaro munosabatini o'rganishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, matn talqinida mikro- va makrosistema, mikro- va makrostrukturalar xususidagi, ularning o'zaro iyerarxik munosabatlari haqidagi ilmiy ma'lumotlarga tayanish lozim ko'rinadi. Vaholanki, bunday ilmiy ma'lumotlar matn doirasida hozircha muvaffaqiyatli qo'llanilayotgani yo'q.

Ko'rinadiki, matn lingvistikasining ilmiy asoslarini belgilab beruvchi mukammal qoidalarga hali tom ma'noda ega emasmiz. Buning uchun, albatta, vaqt talab etiladi. Nemis tilshunosi R.Harveg o'z davrida matn lingvistikasini to'liq ilmiy asoslash va tadqiq qilish uchun kamida yuz yil kerakligini to'g'ri ta'kidlagan edi[5].

Biroq yuqorida aytilgan fikr va mulohazalardan matn lingvistikasi bobida tilshunosligimizda qilinayotgan tadqiqot ishlari qoniqarsiz ekan, degan xulosaga bormaslik kerak.

Bugungi kunda jahon tilshunosligining bu sohada erishgan yutuqlari anchagina. Bunda rus, ingliz, chex, nemis, polyak tilshunoslarining samarali mehnati va izlanishlarini alohida ta'kidlamoq darkor, zotan, ular bu yo'nalishda nafaqat ilmiy maqolalar, balki yirik hajmdagi monografik tadqiqotlarning vujudga kelishiga ham erishdilar. Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, bunda qilinishi lozim bo'lgan global masalalar tadqiqi hali tilshunoslarimizdan ko'p kuch va g'ayrat talab qilishi shubhasizdir. Zotan, mavjud tadqiqot ishlarida matn lingvistikasiga doir umumiy masalalar, uning asoslanishi bilan bog'liq muammolar xusida so'z yuritilmoqda, xolos.

Matn lingvistikasining asosiy masalalari, jumladan, nutq birliklarini asoslash va ularning til birliklaridan farqini ko'rsatib berish singari ishlar tadqiqotlarimiz oldiga jiddiy

tarzda qo‘yilganicha yo‘q. Agar bu bilan bog‘liq holda gapni qat’iy ravishda nutq birligi sanaydigan bo‘lsak, u holda amaldagi gap sintaksisiga taalluqli aksariyat tushunchalar talqiniga yangicha yondashishga to‘g‘ri keladi. Boshqacha aytganda, gap nutq birligi hisoblanadigan bo‘lsa, (uning nutq birligi ekanligi shubhasizdir), u holda amaldagi gap bo‘laklari tahlili yaroqsizdir. Chunki ilmiy asoslanish bo‘sag‘asida turgan nutq lingvistikasi hali o‘zining tahlil usullari va qoidalariga ham ega emas. Ikkinchi tomondan esa, gap matn komponenti sifatida faollik ko‘rsatar ekan, u matn lingvistikasi tamoyillari va qoidalariga so‘zsiz bo‘ysunmog‘i darkor. Bu, albatta, o‘z navbatida, matn lingvistikasi birinchi galda, yuqorida eslatib o‘tilgan muammoli masalalar talqini bilan shug‘ullanishi lozimligini ko‘rsatadi.

Matn lingvistikasi muammosi va uning o‘rganilishi hozirgi paytda jahon tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar matn lingvistikasi masalalari qoniqarli darajada o‘rganilmadi. Bunday vaziyat nafaqat turkiy tilshunoslikda, balki hind-ovrupo tilshunosligida ham kuzatiladi. Vaholanki, matn lingvistikasi muammolarini tadqiq etish eng muhim masala – tilning nutqda qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘lanadi. Shu bois hozirgi paytda matnning ustuvor ahamiyat kasb etuvchi lingvistik kategoriyalardan biri ekanligi alohida ta’kidlanmoqda. Zotan, til sistemasining real qo‘llanishi mustaqil holatda olingan bir gap qolipida emas, balki kommunikativ jarayonda turli maqsadlar ifodasini beruvchi matnlar qolipida voqelanadi. Nemis olimi V. Dressler bu haqda quyidagilarni ta’kidlaydi: «Bugungi kunda tilning eng muhim va mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi haqidagi tushuncha tobora ommalashib ketmoqda. Aynan ana shu narsa matn sintaksisi bilan shug‘ullanish uchun zarurat tug‘dirmoqda» [6].

Biroq, V.Dressler matnni mustaqil til birligi tarzida talqin etadi. Bu, bizningcha, e’tirozlidir, zotan, matn material nuqtayi nazaridan til belgilaridan tashkil topsa-da, til birligi emas, balki nutq birligidir[6].

V.Dressler fikriga o‘xshash mulohazani ingliz olimi M.A.K.Xellideda ham ko‘ramiz: «Tilning real qo‘llanilishi jarayonida so‘z ham, gap ham uning asosiy birligi bo‘lolmaydi. Bunda matn o‘ta muhim mavqega egadir. …Tilni matn qolipida tadqiq etish tilshunoslik uchun psixolingvistika muammolaridan kam ahamiyat kasb etmaydi»[7].

Ko‘rinadiki, yuqorida nomlari eslatib o‘tilgan tilshunoslarning har ikkalasi mulohazalarida ham lingvistik tadqiqotlar tekshiruv oyekti faqat til deb qaraladi, nutq lingvistikasi va uning birliklari haqida esa hech narsa deyilmaydi. Ana shu bois til va nutq birliklari qorishtirib yuborilmoqda.

Albatta, matn nutq birligidir. Shuning uchun uning sintaktik tabiatini o‘rganishda va muman, matn sintaksisi, uning vazifalari belgilanishida nutq birligi masalasi ham e’tiborda bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun esa til va nutq birliklarini farqlab o‘rganishga qat’iy amal qilmoq kerak. «Til va nutq» dixotomiyasini ilmiy asoslab bergan F. de Sossyur bu haqda universitet talabalariga o‘qigan ma’ruzasida tilshunoslik sohasi shug‘illanuvchi sath bag‘oyat kengligini, aniqroq aytganda, u ikki qismdan iborat ekanligini: birinchi qismi tilga yaqin bo‘lib, passif, nofaol zahirani tashkil qilishini; ikkinchi qismi esa nutqqa tegishli bo‘lib, u faol kuch sanalishini ta’kidlagan edi[8].

F. de Sossyurning mazkur mulohazalari, garchi bunda matn tushunchasi tilga olinmagan bo‘lsa-da, matn nutq birligi ekanligidan to‘liq dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida, sintaktik tadqiqotlarimiz xarakteriga ta’sir etib, uning ko‘lamini kengaytirishga ehtiyoj tug‘diradi. Ana shu bois tilshunosligimizda so‘z birikmasi va gap sintaksisi bilan bir qatorda matn sintaksisi degan tushuncha ham sekin-asta iste’molga kirib kelmoqda.

Darhaqiqat, matn sintaksisi tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida to‘liq ilmiy asoslanish bo‘sag‘asidadir. Agar u to‘liq asoslanadigan bo‘lsa, uni odatdagi sintaksisdan o‘z

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

tekshiruv obyektiga ko‘ra keskin farq qiluvchi «katta sintaksis» deb atashga to‘g‘ri keladi, zotan, bunda gaplar, murakkab sintaktik qurilmalar, abzas va boblar o‘rtasidagi munosabatlar tekshiriladi.

Albatta, matn lingvistikasi xususida mulohaza yuritilganda, yuqoridagilardan tashqari, matn deganda nimani tushunmoq lozim, uning komponentlari qanday belgilanadi, degan savollar ko‘ndalang turadi. Bu haqda ham tilshunoslar tomonidan turli xil fikrlar bildirilmoqda. N.V.Petrova «matn» tushunchasini tor ma’noda ham, keng ma’noda ham talqin etish mumkinligini ta’kidlagan. Uni tor, ya’ni an’anaviy ma’noda tushunilganda tugal fikr bildiruvchi va kommunikativ ma’no kasb etuvchi har qanday jumlani, uning hajmidan qat’i nazar, matn deb atash mumkin. Unga ko‘ra «Oziq-ovqat do‘koni», «Gullar», «Hayvonot bog‘i» kabi nomlanish belgilari sanaluvchi so‘z va birikmalar bilan ifodalangan peshtoq yozuvlari ham, va hatto «M» (metro) tarzida qo‘llanilgan alohida grafema ham matn maqomida keladi . «Matn» tushunchasi keng ma’noda tushunilganda esa gazeta va jurnallar maqolalarini, risola, monografiya, roman, doston va hokazolarni taqozo etadi[9].

Ayni paytda shuni ham aytish lozimki, matnning grafema bilan, so‘z, so‘z birikmasi va mustaqil gap bilan ifodalanishi hollari muayyan nutq muhiti va ularga yuklatilgan vazifalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu muhit doirasidagina ular matn maqomini olishi mumkin. Boshqacha aytganda, bunday matnlarning voqelanishi «kontekst» tushunchasi bilan ham uzviy aloqador bo‘ladi.

I.R.Galperin «matn» (tekst) tushunchasini «kontekst» tushunchasidan farqlamoq zarurligini aytadi va quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: «Kontekst – bu ekologik tushunchadir. Boshqacha aytganda, kontekst lingvistik muhitdir»[10].

Olim kontekstning grammatik, sintaktik, leksik, stilistik degan nomlar bilan ataluvchi bir necha turlari mavjudligini ham ko‘rsatadi va ularning birortasi ham «matn» tushunchasi bilan aloqador emasligini eslatadi. Uning fikriga ko‘ra, «matn» - bu tartibga solingan va yozma hujjat tarzida voqelangan xabardir .

Bizningcha, I.R.Galperinning mazkur mulohazasiga qo‘shilsa bo‘ladi, zotan, matn har doim nimanidir tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi xabar ifodasini anglatadi. Bundan tashqari, yuqorida eslatib o‘tilgan kontekst haqidagi ma’lumot ham bir-biriga yaqin nomlar bilan ataluvchi ikki tushunchani (tekst va kontekstni) farqlab o‘rganish uchun asos bo‘la oladi. Biroq, bu bilan matn kontekst tushunchasidan ayri holda yashaydi, degan xulosaga bormaslik lozim. To‘g‘ri, matn va kontekst tushunchalari mazmunan bir-biridan keskin farqlanadi. Lekin kontekst matn shakllanishiga ta’sir o‘tkaza oladi, zotan, matn til va nutq muhitlari og‘ushida vujudga keladi.

I.R.Galperin matnni tilning yozma varianti mahsuli tarzida talqin etar ekan, u bir paytning o‘zida ham jonli (v dvijenii), ham jonsiz (v sostoyanii pokoya) holatda mavjudligini ta’kidlaydi. O‘qish jarayonidan tashqarida bo‘lgan matn jonsiz, nutqiy faollik olib o‘qish jarayoniga kiritilgan matn esa jonlidir. Olim bunda jonsiz matnda jonlilik belgisi implitsit holatda, jonli matnda esa jonsizlik alomati o‘z kuchini yo‘qotishini to‘g‘ri talqin etadi [10].

Darhaqiqat, o‘qish uchun mo‘ljallangan har qanday matnni ham, hali u o‘qilmayotgan bo‘lsa-da, mutlaqo jonsiz deb bo‘lmaydi. Chunki jonlilik alomatlari unda yashirin holatda sezilib turadi.

Biroq, yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, amerikalik deskriptivistlar ta’limotida matnning yozma shakli emas, balki og‘zaki shakli ustuvor ahamiyat kasb etishiga urg‘u beriladi. Fikr isboti uchun L.Blumfildning quyidagi so‘zlariga e’tibor beraylik: «Yozuv – bu til emas, u atigi ko‘rinib turuvchi belgilar vositasida tilning qayd etilishidir. … Yozuv belgilariga (harflarga – Sh.T.) asoslangan holda jonli nutq haqida biror xulosaga kelish uchun nihoyatda ehtiyotkor bo‘lish kerak, chunki bu masala bobida ko‘p xato

qilamiz. Shu bois biz har doim tovush yordamida aytilayotgan so‘zni uning yozma shaklidan ustun turishini e’tiborga olmog‘imiz darkor» [11] .

Ammo L.Blumfildning mazkur fikri, bizningcha, izohli ko‘rinadi, chunki matnning og‘zaki shakli uning lingvistik talqini uchun material bo‘la olmaydi. Buning asosiy sabablari og‘zaki nutqda aksariyat hollarda to‘liq bo‘lmagan elliptik qurilmalarning ishlatilishi, fikr ifodasining uzuq-yuluq jumlalar orqali berilishi va eng muhimi, og‘zaki matnning barqaror xarakterli emasligi bilan bog‘liqdir. Matnning yozma shakli esa turg‘un xarakterda ekanligi va uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkinligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi . Ana shu bois matnnig og‘zaki shakli bilan bog‘liq nutq materiali (masalan, dialog matni) ham o‘zining yozma shakli orqaligina tadqiqot mavzusi bo‘la oladi, zotan, yozma matn tili va uslubi jihatidan muallif tomonidan tartibga solingan bo‘ladi [11].

Shuni ham aytish kerakki, hozirgi paytda «matn» tushunchasi nafaqat real qo‘llanilgan bog‘lanishli va tugallangan sintaktik butunlik sifatida, balki tush ko‘rish hodisasi bilan bog‘liq noreal butunlik tarzida ham talqin etilmoqda. N.V.Petrova g‘arb tilshunoslarining lingvistik g‘oyalarini tadqiq etar ekan, bu haqda quyidagilarni yozadi: «Psixoanalitik nazariyalarga, birinchi galda Z.Freyd (1990), K.G.Yung (1997), Dj.Lakan (1977) nazariyalariga binoan tush ko‘rish hodisasi ham matn maqomida o‘rganilmoqda. Dj.Lakan tushni qat’iy ravishda matn deb targ‘ib etadi. Bu hodisa, garchi har doim ham nutq qurshovida bo‘lmasa-da, uning struktur shaklining matn ekanligi e’tiborga olinadi» [12].

Albatta, tushda yaxlit holda tasavvur etish mumkin bo‘lgan biror voqea-hodisani ko‘rganimizda, unga matn maqomini berish mumkin. Lekin, shunday bo‘lsa-da, matn lingvistikasining qonun-qoidalarini tush orqali belgilab bo‘lmaydi. Shu bois uni insonning psixik holatlari bilan bog‘langan maxsus tekshiruv obyekti tarzida talqin etish mumkin deb o‘ylaymiz. Chunki buning obyektiv sabablari bo‘lib, ularni E.Benvenist quyidagicha izohlaydi: «Tush ko‘rish va ruhiy xastaliklar sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, ulardagi ramzlar qanday xalq yoki madaniyatga mansubligidan qat’i nazar, yagona «lug‘at»ga ega… Bundan tashqari, mazkur ramzlar va ular anglatadigan narsalar ifodalovchilar ko‘p bo‘lgani holda ifodalanuvchi yagona ekanligini ko‘rsatmoqda… Til belgilaridan farqli o‘laroq, mazkur ifodalovchilar va yagona ifodalanuvchi doimo muayyan «maqsad» orqali bog‘langan bo‘ladi. Va nihoyat, aytish lozimki, bu shuuriy ramzlarni bog‘lab turuvchi «sintaksis» hech qanday mantiqqa bo‘ysunmaydi, to‘g‘rirog‘i, bu «sintaksis» faqat voqealarning zamondagi ketma-ketligini ta’minlaydi, xolos» [13].

Ko‘rinadiki, tush hodisasini matn qolipida o‘rganish odatdagi qoidalarimiz doirasiga sig‘maydi. Shuning uchun uni psixoanalitik nazariyalar hamda neyrolingvistik qoidalarga bo‘ysunuvchi maxsus tekshiruv obyekti tarzida e’tirof etish mumkin.

Ta’kidlash joizki, hozirda matn lingvistikasining o‘ziga xos muammolari jahon tilshunoslarining diqqat markazida turibdi. Bu, o‘z navbatida, tilshunoslik fanining yangi sohasi, ya’ni matnshunoslik sohasi vujudga kelayotganidan dalolat beradi. Ammo bu bilan mazkur yo‘nalishda birorta ham tadqiqot ishi olib borilmagan ekan, degan xulosaga bormaslik kerak. Uning ilmiy poydevori hozirgi rus, ingliz, chex, nemis tilshunosliklarida bundan yigirma yilcha muqaddam qo‘yilgan edi. Albatta, matn lingvistikasi singari muhim va ulkan bir muammoning ilmiy jihatdan to‘liq asoslanishi uchun bu muddat juda kamlik qiladi. Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, jahon tilshunosligida mazkur masala talqiniga bag‘ishlangan anchagina ishlar qilindi. Bu ishlarning ko‘plari ilmiy-monografik xarakterda bo‘lmasa ham, masalaning u yoki bu qirralarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular matn lingvistikasi va uning vazifalarini belgilash uchun ma’lum darajada ilmiy qimmatga egadir. Aslida esa, matn lingvistikasi va unga tegishli bo‘lgan muammolarning bugungi tilshunoslikda tarxlarigina (eskizlari) vujudga kelmoqda, deyish maqsadga muvofiqdir. Bu haqda mulohaza yuritganida

nemis tilshunosi D.Fiveger quyidagilarni ta'kidlaydi: «Matn lingvistikasi predmeti, uning nazariy asoslari va matnni kompleks tarzda tadqiq qilish haqida hozircha xomaki fikrlarnigina aytish mumkin» [14] .

Matn lingvistikasi va uning vazifalari haqida hozirgi tilshunosligimizda turli xil, ba'zan qarama-qarshi fikrlar bayon etilmoqda. Quyida ularning ba'zilariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

K.Gauzenblasning ta'kidlashicha, matn muammolari bir necha yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Bu yo‘nalishlarning barchasi matnni bevosita tashkil etayotgan va unga nutq kategoriyasi maqomini berayotgan unsurlarning o‘ziga xos tabiatini o‘rganish bilan belgilanmog‘i darkor.

K.Gauzenblasning tadqiqotlarida matn lingvistikasi bobida ilmiy kuzatish ishlari olib borayotgan tilshunoslar matnni ikki xil tushunayotganliklari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Unga ko‘ra, matn nutqiy faoliyat mahsuli sifatida, yohud nutqiy jarayon tarzida talqin etilishi mumkin. Nutqiy faoliyat mahsuli sifatidagi matn yozma nutq bilan bog‘lansa, nutqiy jarayon sifatida talqin etiladigan matn og‘zaki nutq bilan (magnit tasmasiga yozilgan og‘zaki nutq ham bunga kiradi) aloqador bo‘ladi. Boshqacha aytganda, matn so‘zlashuv jarayonida ham, yozuv jarayonida ham shakllanishi mumkin [15].

Rus tilshunosi T.M.Nikolayevaning fikriga ko‘ra, matn lingvistikasini kommunikativ grammatika bilan uzviy bog‘lab tasavvur etish maqsadga muvofiqdir. Olim bunda gapning aktual bo‘laklari nazariyasini ko‘zda tutadi. Gapning aktual bo‘laklari aniqlik va noaniqlik tushunchalariga asoslanishi shubhasizdir. Agar aktual bo‘laklarning biri - tema nutq jarayonida so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan ma'lum bo‘lsa, ikkinchisi - rema noaniq bo‘ladi. Shu bois u xabarning asosiy salmog‘ini tashkil etadi. T.M.Nikolayevaning ta'kidlashicha, matn tarkibida boshqa komponentlarning ana shu rema bilan qay darajada munosabati borligini o‘rganish matn lingvistikasining asosiy muammolaridan biri bo‘lmog‘i kerak [16].

Bizningcha, T.M.Nikolayevaning mazkur fikri matnning semantik, uslubiy yohud mantiqiy tahlili uchun ahamiyatlidir. Matn lingvistikasi esa tilning sistema ekanligi va bu sistemaning nutqqa ko‘chirilishi muammolari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Gapning aktual bo‘laklari (tema-rema) bizga Aristoteldan meros qolgan «subyekt» va «predikat» tushunchalari bilan uzviy bog‘lanadi. Subyekt va predikat esa mantiqiy ega va mantiqiy kesim doirasidan chiqa olmaydi. Shuning uchun gapning aktual bo‘laklari talqinini sintaktik muammo deb bo‘lmaydi[17]. Bundan tashqari, ba'zi olimlar subyekt va predikat tushunchalarini nafaqat tilshunoslikda, balki mantiqning o‘zida ham ijobiy baholamaydilar. Bu haqda aytilgan prof. P.S.Popovning quyidagi fikri xarakterlidir: «An'anaviy mantiqiy subyekt va predikat tushunchalarini arxivga topshirish payti keldi: ularni chang bosib qolgan»[18].

Bizningcha, matn lingvistikasi muammolarini «tema» va «rema» tushunchalari bilan bog‘lab o‘rganish masala mohiyatini ko‘proq mantiq fani bilan bog‘laydi, zotan, «tema va rema» tushunchalari mantiqiy subyekt va predikatning o‘zgacha nomlanishini taqozo etadi.

Chex olimi V.Skalichka tadqiqotlarida ham I.R.Galperinning qarashlariga o‘xshash matnning yozma va og‘zaki shakllari to‘g‘risida fikr bildirilgan[19]. Biroq I.R.Galperin og‘zaki nutq materialini yuqorida eslatib o‘tilgani singari tadqiqot obyekti bo‘ladigan matn tarzida tavsiya etmaydi. Olim matn deganda, o‘z parametrlariga ega bo‘lgan, har tomonlama tartibga solingan yozma nutqni tushunadi[20].

Albatta, matnning og‘zaki shaklini prinsip nuqtayi nazaridan inkor etib bo‘lmaydi. Biroq matn lingvistikasi ilmiy asoslanayotgan bir paytda unga tayanish qiyin. Chunki matn talqinining semantik jihatlarini ham, sintaktik muammolarini ham, masalan, magnit tasmasiga yozilgan og‘zaki matn asosida izohlay olmaymiz.

A.Boguslavskiy matn bir necha gapning yig‘indisidan tashkil topgan fikrlar umumlashmasi ekanligini, matn haqidagi fan uchun eng muhimi muallif nimalarni ifoda qilayotgani yoki

matnning mazmuni emasligini, balki u qaytarzda shakllanayotgani, qanday unsurlardan tuzilayotganini o‘rganish ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlaydi [21].

Bu jihatdan A.Boguslavskiyning mulohazalari matnning sintaktik derivatsiyasi muammolari bilan bevosita bog‘lanadi. Bu juda muhimdir, chunki matn derivatsiyasi masalalarini o‘rganish tilning katta lingvistik sathda nutqqa ko‘chirilishi xususida qimmatli ma’lumotlar berishi shubhasizdir. Zotan, matn til unsurlarining nutqda real qo‘llanilishi uchun asosiy obyekt sanaladi. A.A.Leontev ta’biri bilan aytganda: «Matn o‘z funksiyasiga ko‘ra to‘liq tugallikka ega bo‘lgan nutq butunligidir» [22].

Matn va uning lingvistik tahlili haqida M.P.Yonitsening fikri ham e’tiborga molikdir. Unga ko‘ra, har qanday matn uchun ham komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi muhim belgi hisoblanadi. Mazkur bog‘liqlik matnning mazmuni ifodasi doirasida voqelanadi va bunda grammatik vositalar ishtirokida amalga oshuvchi lingvistik ifoda usullari katta ahamiyat kasb etadi. Zotan, ular vositasida matnning alohida unsurlari o‘zaro bog‘lanadi va ana shu tarzda o‘z mazmuniy yaxlitligiga ega bo‘lgan matn shakllanadi [23].

Bu o‘rinda matn komponentlarining o‘zaro bog‘lanishi deganda, faqat mazmuniy bog‘lanishni emas, balki ularning zaruriy grammatik vositalar ishtirokida bog‘lanishini ham tushunmoq lozim, zero, mazmuniy bog‘lanish uchun lingvistik (grammatik) omillarga ehtiyoj tug‘ilishi tabiiydir. Buni murakkab sintaktik qurilmalar strukturasida yanada aniqroq ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ducrot O. Structuralisme: enonciation et semantique.//Poetique, 1978, №3, P.107-125.
2. Мурзин Л. Н. Основы дериватологии. - Пермь, 1984.- С. 3.
3. Кривоносов А.Т.«Лингвистика текста» и исследование взаимостношения языка и мышления // Вопросы языкознания, 1986, № 6. – С.29.
4.Кацнельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. Л., 1972.- С. 119.
5.Harweg R- Textlinguistik – Yn: Prospektiken der Linguistik, Bd.2. – Stuttgart, 1974.
6.В.Дресслер фикри О.И.Москальскаянинг қуйидаги ишидан олинмоқда: Москальская О.И. Семантика текста // Вопросы языкознания, 1980, № 6, – С. 33-34.
7.М.А.К.Хэллиде фикри қуйидаги мақоладан олинди: Гальперин И.Р. О понятин «Текст» // Вопросы языкознания, 1974, № 6. – С. 68.
8. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. - М., 1990.- С.206 .
9. Петрова Н.В. Текст и дискурс // Вопросы языкознания, 2003, № 6. – С. 123
10. Гальпирин И.Р. О понятин текст // Вопросы языкознания, 1974, № 6. – С. 72.7
11. Блумфилд Л. Язык. – М., 2002. – С. 35-36.
12. Петрова Н. В. Текст и дискурс// Вопросы языкознания, 2003, № 6. – С.124.
13. Бенвенист Э. Общяя лингвистика. – М.,1974. – С.125.
14. Фивегер Д. Лингвистика текста в исследованиях ученых ГДР// Синтаксис текста. – М., 1979. –С. 318.
15. Hausenblas K. Vystavba jazykovych projevu a styl. – Praha, 1972. – С.67.
16. Николаева Т.М. О функциональных категориях линейной грамматики// Синтаксис текста. –М.,1979. – С.37-42.
17. Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М., 1988. – С.86-89.
18. Попов П.С. Суждение. –М., 1957. – С. 28-29
19. Skalicka V. Text, kontext, subtext // Slarica Pragensia III. –Praha, 1961.-С. 73.
20. Гальперин И.Р. О понятии «текст» // Вопросы языкознания, 1974, № 6.-С.68.
21. Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. – Л., 1983. – С.4.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

22. Леонтьев А.А. Высказывание как предмет лингвистики, психолингвистики и теории коммуникации// Синтаксис текста. – М.,1979.

23. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М., 1973.

Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

24. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.

25. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.

26. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.

27. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

28. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.

29. Shirinboyevna M. D. NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 39-42.

30. Mamirova D. REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 45-47.